



**GLOBAL MUAMMOLARNING DUNYO MAMLAKATLARGA TA'SIRI VA
UNGA YECHIM TOPISHDA DAVLATLARARO IMZOLANGAN HUJJATLAR.**

Meliyeva Parvina.

Yuridik fakulteti sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi.

XX asrning ikkinchi yarmida insoniyat oldida juda ko'p murakkab muammolar vujudga keldi. Ularning asosiy qismi ta'sir doirasining miqyosi va ahamiyatiga ko'ra global muammolar nomini oldi. Globallashuv bu-butun yer sharini qamrab oluvchi, dunyo bo'ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya va birlashish jarayonidir. Shu bilan birga umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq hozirgi zamon muammolari global muammolar deyiladi.

Globallashuv deganda ko'pincha iqtisodiy ochiqlikning oshishi, savdo-sotiq va xalqaro kapital erkinlashishini ham tushunishimiz mumkin. Global muammolar jahon mamlakatlari iqtisodiyotining o'zaro bir-biriga kirib borishini, o'zaro bog'liqligini va bir-biri bilan qo'shib ketishini ifodalaydi. Bunda bir mamlakatda yuz berayotgan muammolar boshqa davlatlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqolada ham butun mamlakatlarga va aholining hayotiga xavf solayotgan, rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, aholi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlar natijasi hisoblangan mintaqaviy muammolar, ushbu muammolarni bartaraf etishda davlatlar o'rtasida imzolangan hujjatlar, ko'rilayotgan chora-tadbirlarni ham ko'rib chiqamiz.

Hozirgi paytda insoniyat hayotiga xavf solib turgan umumbashariy muammolar deganda butun dunyo, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo'lmagan muammolarni tushunishimiz mumkin.

Agar XX asrning birinchi yarmi oxirlarida insoniyat qarshisida asosan bitta umumbashariy muammo-yadro halokatini oldini olish ko'ndalang turgan bo'lsa, II jahon urushidan keyin ahvol o'zgardi. Aholi tabiiy o'sishining yuqori darajasi saqlanib qolishi, fan va texnika yutuqlaridan tor manfaatlar yo'lida foydalanish va bir qator mintaqalarda murakkab ekologik vaziyatning vujudga kelishi masalani og'irlashishiga sabab bo'ldi. Oqibatda insoniyatning kelajagi to'g'risida turli xildagi bashoratlar kelib chiqdi.

Xususan, tabiatga insonlarning zug'umi kuchaya borgan sari tabiiy muvozanatning buzilishi oqibatida insonlarning yashash tarzi, sog'ligi, ijtimoiy muhitga bo'lgan aks ta'siri borgan sari halokatli tus ola boshladi.

Insoniyat bu kabi tahlikali vaziyatdan faqatgina har qanday siyosiy, mintaqaviy, irqiy, milliy, diniy manfaatlarini keyinga surib, umuminsoniy manfaatlar tevaragida jipslashish, zudlik bilan choralar ko'rish orqaligina qutulishi mumkin edi.

Global muammolarning paydo bo'lish jarayoni turlicha qabul qilinadi va baholanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda unga turlicha munosabatda bo'lishadi. Bir tarafdin xorijiy raqobat uchun bozorlarning ochilishi, xalqaro savdo, kapital va mehnat



resurslari ko'chib yurishini kuchayishi, jahon ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish, jahon ishlab chiqarishini oshirish uchun yangi imkoniyat yaratadi. Ikkinchi tarafdin, global bozorlarda raqobatning kuchayishi, xo'jalik faoliyatining keng erkinlashuvi mamlakatlar uchun xavf-xatar tug'dirishi muqarrardir.

Globallashuv jarayonlarini hozirga kelib ko'plab xususiyatlarini e'tirof etish mumkin:

Birinchidan, globallashuvni muqobilligi-globallashuvning ichki qarama-qarshiligini aks ettiruvchi globallashuv jarayonlarining turli variantlaridir. Bu eng avvalo, globallashuv ro'yobga chiqariladigan quyidagi modellarga taalluqli: liberal model yoki ijtimoiy mo'ljal olgan model.

Ikkinchidan, globallashuv muqobillari mintaqalarga bo'linishda namoyon bo'ladi, unga muayyan izchillik beradigan va uning eng salbiy oqibatlarini kamaytiradigan o'ziga xos shakli sifatida qaraladi. Globallashuvning muqobilligining borligi jahon globallashib borayotgan bir paytda globallashuvning o'zi uchun salbiy oqibatlarini kamaytirib va bu jarayonlardan ko'proq foyda olib, inson uchun globallashuv jarayonlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi paytda ko'pchilik mualliflar globallashuv tushunchasini "global" so'zi etimologiyasiga yaqin ma'noda, ya'ni yaxlit, umumiy ma'noda talqin etadi va qo'llaydi. Jahon hamjamiyati uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan, umuminsoniy hisoblangan, barcha xalqlar va fuqarolar, mamlakatlar va madaniyatlar manfaatlariga ta'sir qiladigan va ehtiyojini ifodalaydigan omillar, tendensiyalar va jarayonlar global hisoblanadi va shunday qabul qilinadi va baholanadi. Global muammolar bu umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq, hozirgi zamon muammolaridir.

Global muammolar, avvalo jahonda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ilmiy-texnologik, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning umumbashariy ahamiyat kasb etishi natijasida yuzaga keladi. Butun mamlakatlar o'rtasida sodir bo'layotgan global muammolarni 4 turga ajratib o'rganish mumkin:

Birinchidan, xalqaro siyosiy munosabatlarda vujudga kelgan global muammolar-jahonda rivojlangan, rivojlanib kelayotgan va qoloq mamlakatlarning mavjudligi. Taraqqiy qilgan mamlakatlarda demokratik qadriyatlar rivojlangan bo'lsa, qoloq mamlakatlarda avtoritarizm, demokratiyaga zid bo'lgan, ijtimoiy munosabatlar avj oldi, xalqaro xavfsizlikka qarshi tahdidlar paydo bo'ldi.

Ikkinchidan, Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda paydo bo'lgan global muammolar-jahon xo'jalik tizimi vujudga kelib, unda asosan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ustunligi qaror topadi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar, transmilliy korporatsiyalar jahon iqtisodiyotini boshqarayotgan bir paytda, ikkinchi tomonda ularga qaram, iqtisodiyoti past darajadagi mamlakatlar mavjudligidir.

Uchinchidan, ijtimoiy sohada vujudga kelgan global muammolar-jahon aholisi muttasil ko'payishi natijasida Osiyo va Afrika mamlakatlarida oziq-ovqat, ichimlik suvi tanqisligi kuchayib, bu hol boshqa mamlakatlarda ham kuzatilayotgani, dunyo aholisini ko'p qismi ocharchilikni boshdan kechirayotgani, savodsiz ekanligi, butun insonlarga xavf tug'diruvchi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



kasalliklar tez tarqalayotgani shunday muammolar sirasiga kiradi. To'rtinchidan, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi oqibatida vujudga kelgan muammolar-ular qatoriga dengiz va suv havzalarining bulg'anishi, o'rmon maydonlarining qisqarishi, atmosfera azon qatlamini yo'qolib borishi kabilar kiradi. Xatarli kimyoviy moddalarning juda ham ko'p ishlatilishi tufayli qishloq xo'jaligida ekin ekiladigan yerlarning katta qismi yaroqsiz holga kelishi xavfi kuchayadi.

Global muammolarni o'rganar ekanmiz, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy holat bilan bog'liq jarayonni ham ko'zdan qochirmasligimiz darkor. Jahon iqtisodiyotida uning eng dinamik qismi-global iqtisodiyot ajratiladi. Bu milliy iqtisodiyotlarning resurslar va mahsulotlarni tashqi dunyoga yetkazib boruvchi va ulardan oluvchi qismidir.

Iqtisodiy nazariya bunday resurslar va mahsulotlarni, savdo qilinmaydigan, ya'ni milliy chegaralarni hatlab o'tmaydigan resurslardan farqli ravishda savdo qilinadigan resurslar va mahsulotlar deb nomlaydi. Global muammolarni birinchi navbatda jami insoniyatga, barcha mamlakatlar, xalqlar, ijtimoiy tabaqalar manfaatlari va taqdiriga ta'sir ko'rsatuvchi, ikkinchidan iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida katta talafotlarga, inqirozlarga sabab bo'luvchi, chuqurlashgan taqdirda jahon sivilizatsiyasi mavjudligiga xavf soluvchi, uchinchi tomondan yechim topishga umumproletar miqyosdagi hamkorlikni barcha mamlakatlar va xalqlarning birgalikda harakat qilishini talab qiluvchi muammolardir. Global muammolarni orasida eng muhimini ko'rsatib o'taydigan bo'lsak, rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish muammosi, tinchlik va qurolsizlanish muammosi, energetik, ekologik, xom-ashyo muammolari alohida ajralib turadi. Bular orasida ekologik muammolarni oladigan bo'lsak, hozirgi vaqtda global ekologik tizimning degradatsiyalanishi to'g'risida so'z bormoqda. Ya'ni betartib tarzda tabiatdan foydalanish oqibatida atrof-muhitning ifloslanishi, tabiatni inson faoliyati bilan buzulishi, atrof-muhitni chiqindilar bilan zaharlanishi. Shunday qilib, ishlab chiqarishni o'sishi, ilmiy-texnik inqilob natijalari va tabiat imkoniyatlaridan o'ylamay foydalanish dunyo oldida turgan global muammodir. Undan tashqari bugungi kunda suv resurslaridan oqilona foydalanish ham mamlakatimizning barqaror taraqqiyotida hal qiluvchi masalalardan biridir. Suv resurslarini kamayib borishiga asosiy sabab sayyoramizdagi ekotizimning buzilishi, davlatlar iqtisodiyoti ko'lami va aholisi soni o'sib borishi natijasida qo'shimcha suvga talabning ortishi tufaylidir. Tabiatdagi suv aylanishi Yerdagi barcha mavjudotlarning rivojlanishi uchun muhimdir. Turli sanoat va qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini suv resurslaridan foydalanmasdan tasavvur qilish qiyin. Shu tufayli suv resurslaridan noqonuniy foydalanish ham mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi muhim masaladir. Shu bilan birga mamlakatimizda sobiq Ittifoqdan meros qolgan eng global muammolardan biri - Orol fojiasi ekanligini bilamiz.

Bu muammoni hal qilishda ko'plab davlatlar tashabbuslarni o'rta tashlab kelmoqda. Nafaqat Orol fojiasi, balki butun global muammolarni hal qilishda Rim klubi muhim ahamiyatga ega. Rim klubi a'zolari o'z oldilariga ikki maqsadni qo'yadi.

Birinchi, insoniyat oldida turgan asosiy global muammolarni aniqlash,



Ikkinchisi, jamiyatga ushbu global muammolarni taqdim etib, ularni bartaraf etish borasidagi eng dolzarb ishlarini belgilab olib amalga oshiradi.

Rim klubi keyingi paytlarda bir qancha ma'ruzalar tayyorladi. Bu ma'ruzalarida global muammoni hal qilishda sivilizatsiyani qayta tiklash va atrof muhitni ifloslovchi insonlar ongini yangilash kerakligini alohida ta'kidlagan. Hozirgi paytda yuqorida aytib o'tgan muammolarga yechim topishda xalqaro hamkorlik qilish dunyoda barqaror, ishonchli va farovon taraqqiyotni ta'minlay olishi dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan.

Xususan, O'zbekistonda Orol muammosini bartaraf etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Orolbo'yidagi murakkab ekologik vaziyat, aholi genofondini muhofaza qilish, salomatligini tiklash borasida loyihalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida ham iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishi sayyoramiz uchun keskin ekologik vaziyat bo'lib qolayotganligini, Orol dengizi fojiasiga qarshi kurashni davom ettirayotgan Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanganligi to'g'risida o'z fikrini bayon etdi. Undan tashqari atrof muhitni asrash borasida, o'rmonlar qisqarishi, suv resurslarini tejash borasida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 30-dekabrda "Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi" qarori qabul qilingan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, global muammolarni oldini olish yoki uni bartaraf etish barcha mamlakatlarning oldida turgan asosiy masalalardan biridir. Birinchi navbatda davlatlar o'rtasidagi yadroviy qurollar ishlatishni to'xtatish, ya'ni urushlarga barham bermoq darkor. Shu bilan birga insonlarni atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini o'zgartirmoq, keraksiz chiqindilarni hamma joyga ham tashlab ketavermaslik, suvdan oqilona foydalanish, daraxtlarni kesmaslik, ya'ni tabiatdagi yashillikka zarar yetkazmaslik, oziq-ovqat, xom-ashyo, energetika resurslaridan keragidan ko'p foydalanmaslik muammolarni globallashtirib ketmasligi uchun asosiy omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Isadjanov, N.S.Ismailova. Jahon iqtisodiyotining Globallasuvi. Toshkent - "Iqtisodiyot" - 2019.
2. Mohira Xodjayeva. Global muammolarga, global yechim. 2023-yil.
3. Dildora Abzalovna Raximova. Global muammolar falsafasi. 2023-yil.
4. S.Otamuratov, M.Yuldasheva, X.Okyulov, K.Mahmudov, F.Adilov, T.Aliyev, S.Shoyimov. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. Toshkent "Yuridik adabiyotlar publish" 2024-yil.
5. Samanova Sh.B. Global ekologik muammolar yechimi O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida. 2023-yil.
6. Khursandovna, K.G. (2022). From the history or the peculiar deve Development of





the national culture of the Surkhandarya people. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 3, 141-146.

7. Худайбердиева Г.Х., Алланазаров М.М. Ёшларни ғоявий тарбиялашнинг усуллари, шакллари ва воситалари // Инновации в педагогике и психологии. – 2020. – №. SI-2№ 1.

8. Худайбердиева Г.Х. (2020). Сущность и особенность и особенности педагогической профессии, её развитие. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (1), 180.

9. Khudaiberdieva Gulnora Khursandovna ACTIVITIES OF CULTURAL INSTITUTIONS IN SURKHANDARYA DURING THE SOVIET REGIME. Journal of Education, Ethics and Value. Vol. 4, No. 5, 2025. ISSN: 2181-4392. 81-82.